



**Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida qoʻllanilgan
maqollarning badiiy xususiyati**

Muxtorova Sevinch Anvar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti filologiya fakulteti
filologiya va tillarni oʻqitish oʻzbek tili
yoʻnalishi 1-bosqich talabasi

sevinchmuxtorova481@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotda xalq maqollarining qoʻllanilishi
Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romani asosida tahlil qilingan.

Maqollar badiiy asarlarning muhim elementlaridan bir ekanligi muhokama qilingan.

Kalit soʻzlar: maqol, hikmatli soʻzlar, otalar soʻzi.

Oʻzbek adabiy merosini hikmatli soʻzlar hamda xalq maqollarisiz tasavvur qilib
boʻlmaydi. Xalqimiz orasida maqolga nisbatan “otalar soʻzi” iborasining ishlatilishi ham
bejiz emas. Umuman olganda, “maqol deb, xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy
tajribasi umumlashgan, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli soʻzlarga aytiladi”.
(T.Mirzayev)

“Maqollar xalq tushunchasi, hayot tajribalari, mulohazalarining umumlashma
xulosasi boʻlibgina qolmay, haqiqatning obrazli ifodasi u yoki bu narsa ustidan chiqarilgan
hukm hamdir”. (N.Muhitdinova)

Xalq maqollar faqatgina ogʻzaki ijodning eng faol janri boʻlibgina qolmay, ularning
yozma adabiyotda qoʻllanilishi badiiy asar tiliga oʻzgacha koʻrk bagʻishlaydi.

“Yozma adabiyotda maqollardan foydalanishning bir necha koʻrinishlari mavjud.
Jumladan, baʼzan maqollar aynan keltiriladi, baʼzan maqoldagi ayrim soʻzlar oʻzgaradi,
ammo maʼno saqlanadi. Baʼzan esa adib maqollardagi maʼnolarni oʻziga xos boʻlgan



boshqa soʻzlar bilan ifodalaydi”. (T.Mirzayev) Xususan, oʻzbek yozuvchisi Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida bir qancha xalq maqollari qoʻllanilgan boʻlib, ular badiiy asar tilining yanada jozibali boʻlishiga xizmat qilgan. Asarda 30 dan ortiq xalq maqollaridan foydalanilgan va ulardan baʼzilarining ayrim soʻzlari oʻzgartirilgan holda qoʻllanilgan. Jumladan, oʻynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan (189-bet) maqolida oʻynashmagin soʻzi oʻrnida urushmagin (96-bet) hamda olishmagin (28- va 75-betlar) soʻzi ishlatilgan. Haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi (74-, 105- va 177-betlar) maqolida esa haqiqat soʻzi oʻrnida adolat (38-bet) soʻzi foydalanilgan. Biroq shunday boʻlsa-da, asar mazmuniga taʼsir koʻrsatmagan, aksincha uning yanada mukammal boʻlishiga xizmat qilgan.

Ammo baʼzi oʻrinlarda yozuvchi ayrim maqollarning maʼnolarini oʻziga xos soʻzlar bilan ifodalagan. Xususan, har yaxshining bir yomoni bor maqolini muallif teskari shaklda, yaʼni “lekin bir yomonning yaxshisi boʻlar ekan” (11-bet) tarzida qoʻllagan. Qolgan maqollar esa oʻz holicha foydalanilgan:

Men qilaman toʻqqiz, Tangri qiladi oʻttiz (8-bet)

Sulaymon oʻldi, devlar qutuldi (10-bet)

Oʻrmonga oʻt ketsa, hoʻl-u quruq baravar yonadi (21- va 80-betlar)

Onangning oʻynashi qozi boʻlsa, dardingni kimga aytasan” (25-bet)

Boshga tushganini koʻz koʻradi (29-, 159-, 170- va 218-betlar)

Birovga yomonlik tilaguncha, oʻzingga omonlik tila (46-bet)

Zoʻrniki tegirmon yurgizadi (89-bet)

Kimki birovga choh qazisa, oʻzi yiqilar (92-bet)

Sabr tagi sariq oltin (98- va 177-betlar)

Yotib qolguncha otib qol (99-, 180- va 197-betlar)

Qush tilini qush biladi (101- va 211-betlar)

Har kim ekanini oʻrar (142-bet)

Idoraga borsa, bola bahona (145-bet)

Koʻr hassasini bir marta yoʻqotadi (147-bet)



Qatinning joni qirq tanga (152-bet)

Shamol bo`lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi (159-bet)

Yetim qo`zi asrasang, og`zi-burning moy bo`lar, yetim bola asrasang, og`zi-burning qon bo`lar (167-bet)

Bugungi ishni ertaga qoldirma (180-bet)

Qari bilganini pari bilmas (186-bet)

Eski hammom-eski tos (204-bet)

Xulosa qilib aytganda, Odil Yoqubov o`z asarini o`zbek xalq maqollari bilan boyitar ekan, kitobxon e`tiborini xalq donishmandligining mahsuli bo`lgan maqollarga qaratib, asar qahramonlari tilidan turli o`rinlarda hikmatli so`zlar aytilgan va bu, o`z navbatida, asar uslubini badiiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan. Qolaversa, “maqol-donishmandlik ramzi. Ular o`quvchi va tinglovchilar fikrini chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalashga o`rgatsa, kishilarni, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita vazifasini o`taydi”. (N,Muhitdinova)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odil Yoqubov. “Adolat manzili”. Roman. NURLI DUNYO NASHRIYOT UYI. Toshkent-2024
2. T.Mirzayev. “O`zbek folklori”. Darslik. Toshkent “MALIK PRINT CO”-2021
3. N.Muhitdinova. “O`zbek folklori”. O`quv qo`llanma. Samarqand-2019
4. T.Mirzayev, A.Musaqulov, B.Sarimsoqov, Sh.Turdimov.”O`zbek xalq maqollari”. “SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. TOSHKENT-2005